

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*60410600 – Sug‘urta ishi*  
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent - 2023



## **ISHLAB CHIQILGAN:**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Toshkent moliya instituti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023 yil «7» 08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur malaka talablari «Oliy ta'lif davlat ti'lim standarti. Asosiy qoidalar», «Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori», O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60410600 – Sug‘urta ishi</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiyl tavsifi .....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	<i>60410600 – Sug‘urta ishi</i> ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60410600 – Sug‘urta ishi</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	<i>60410600 – Sug‘urta ishi</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60410600 – Sug‘urta ishi</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari.....	4
1.2.3.	<i>60410600 – Sug‘urta ishi</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60410600 – Sug‘urta ishi</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlearning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60410600 – Sug‘urta ishi</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlearning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minkaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	<i>60410600- Sug‘urta ishi</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturlarning tuzilishi	8
2.4.	Kvalifikatsiya.....	8
	Bibliografik ma’lumotlar.....	9
	Kelishuv varag‘i.....	10

## **1. 60410600 – Sug‘urta ishi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiyo tavsifi**

60410600 – Sug‘urta ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60410600 – Sug‘urta ishi ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi 60410600 – Sug‘urta ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talabları, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruvin xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasalarining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. 60410600 – Sug‘urta ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. 60410600 – Sug‘urta ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:**

60410600 – Sug‘urta ishi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi – iqtisod sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, umumiy va hayotni sug‘urta qilish tarmog‘idagi sug‘urta tashkilotlarida biznes jarayonni tashkil etish; sug‘urtada anderryting siyosatini amalga oshirish; sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish va sotish ishlarini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish; sug‘urta tashkilotining to‘lov qobiliyatini ta’minalash va sug‘urta zaxiralarini shakllantirish; sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish; sug‘urta da’volarini ko‘rib chiqish; tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari; o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi; davlat boshqaruvi organlarida kompleks masalalar bilan bog‘liq kasbiy sohalari majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. 60410600 – Sug‘urta ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:**

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda boshqa davlat boshqaruvin organlari;
- O‘zbekiston sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi;
- umumiy va hayotni sug‘ortalash tarmog‘idagi sug‘urta tashkilotlari;
- sug‘urta brokerlik va qayta sug‘urta tashkilotlari;
- mulkchilik shakllaridan qatiy nazar korxona va tashkilotlarining risklarni baholash va boshqarish tuzilmalari;
- fond va qimmatli qog‘ozlar bozorlari;

- fond va qimmatli qog‘ozlar bozorlari;
- konsalting firmalari;
- o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari;
- ilmiy-tadqiqot institutlar va markazlari.

**1.2.3. 60410600 – Sug‘urta ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ishlab chiqarish;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ilmiy-tadqiqot faoliyati.*

**1.2.4. 60410600 – Sug‘urta ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.**

60410600 – Sug‘urta ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish faoliyatida:**

- sug‘urtada biznes jarayonlarni tashkil etish va boshqarish;
- sug‘urtaga qabul qilinayotgan ob’ekt va unga ta’sir etuvchi risklarni o‘rganish;
- sug‘urta shartnomalarini tuzish va uning bajarilishini nazorat qilish;
- sug‘urta mahsulotlarini sotish texnologiyalari;
- sug‘urta tashkilotining raqobatbardoshligini oshirish taktikasi va strategiyasini ishlab chiqish;
- sug‘urtaga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihamini ko‘rib chiqish va taklif berish;
- sug‘urta mukofotlari tushumi va sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish hamda bajarilishini muvofiqlashtirish;
- sug‘urtada anderrayterlik faoliyatini amalga oshirish;
- sug‘urta da‘volarini ko‘rib chiqish va tartibga solish.
- cug‘urta tashkilotining biznes-rejasini ishlab chiqish;
- sug‘urta tarif stavkalarini hisoblash;
- sug‘urta tashkilotining daromadlari va xarajatlari tarkibini optimallashtirish;
- majburiy va ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta zaxiralarini hisob-kitob qilish;
- sug‘urta zaxiralarini shakllantirishda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan o‘rnatilgan norma va talablarga rioxqa qilish;
- sug‘urtalovchi to‘lov qobiliyati marjasini aniqlash;
- sug‘urta tashkiloti aktivlarini investitsiya ob’ektlariga o‘rnatilgan normativlar asosida joylashtirish;
- sug‘urta va qayta sug‘urta tashkilotining moliyaviy barqaror faoliyat yuritishini ta’minalash;
- sug‘urta tashkilotining buxgalteriya va moliyaviy hisobotini tayyorlash hamda haqqoniyligini tekshirish;
- pullik ta’lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha turli xizmatlarni ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish;
- ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta’lim yo‘nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;
- ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy- tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;
- ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo‘yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ularidan foydalanish;

- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-amaliy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- sug'urta ishi sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlasmalarni amaliyatga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

## **2. 60410600 – Sug'urta ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarni bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarini o'rganish va chuqur egallahash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi; ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilish, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirdarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;
- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- sug'urta qoidalari va dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni qo'llash yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- loyihamar, biznes-rejalar va shartnomalar tuzish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- sug'urta tashkiloti faoliyatini byudjetlashtirish, sug'urta portfeli shakllanishini tashkil etish va nazorat qilish;
- sug'urta faoliyatini amalga oshirishda, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruv vazifalariga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- sug'urta sohasida biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;
- sug'urta faoliyatini raqamlashtirish asosida sug'urta xizmatlarini ko'rsatishni tashkil

etish va muvofiqlashtirish borasida *ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalarning umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasyuiy kompetensiyalarni egallahsha qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashha qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyot o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalari va malakalarni shakllantirishha qaratiladi.

**2.3.1. 60410600- Sug‘urta ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturlarning tuzilishi: \***

<b>T/r</b>	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari
<b>1.00</b>	<b>Majburiy fanlar</b>
1.01	O‘zbekistonning eng yangi tarixi
1.02	Falsafa
1.03	Iqtisodiyot nazariyasi
1.04	Matematika
1.05	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar
1.06	O‘zbek(rus) tili
1.07	Xorijiy til
1.08	Dinshunoslik
1.09	Sug‘urta nazariyasi
1.10	Mikroiqtisodiyot
1.11	Makroiqtisodiyot
1.12	Pul va kredit
1.13	Statistika
1.14	Moliya
1.15	Moliyaviy hisob asoslari
1.16	Sug‘urta ishi asoslari 1
1.17	Sug‘urta ishi asoslari 2
1.18	Buxgalteriya hisobi
1.19	Audit
1.20	Sug‘urta ishi
1.21	Sug‘urta huquqi va tartibga solish
1.22	Ekonometrika
1.23	Risklar tahlili
1.24	Hayot sug‘urtasi modellari
1.25	Xalqaro sug‘urta bozori
1.26	Soliqlar va soliqqa tortish
<b>2.00</b>	
	<b>Jami</b>
	<b>Malakaviy amaliyot</b>
	<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>
	<b>Jami</b>
	<b>Hammasi</b>

\* Mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha semestrlar kesimida kreditlar miqdori “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”ga muvofiq Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent moliya instituti tomonidan mustaqil belgilanadi hamda akademik mobillik jarayonida o‘zaro tan olinadi.

**2.4. Kvalifikatsiya:** iqtisodchi, sug‘urta anderrayteri



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 336.72

Guruhi T 55

OKS 01.040.01

---


### Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturlari, malaka, amaliyot, attestatsiya, sug'urta, sug'urta bozori, sug'urta faoliyati, sug'urta tarifi, sug'urta mukofoti, sug'urta shartnomasi, sug'urta mahsuloti, sug'urta tashkiloti, sug'urta zaxiralari, sug'urta anderraytingi, sug'urtalovchi to'lov qobiliyati, sug'urta da'volari, sug'urta portfeli, sug'urta qoidalari, sug'urta klassi, sug'urta mahsulotini sotish texnologiyalari, sug'urtada biznes-jarayon, majburiy va ixtiyoriy sug'urta, sug'urta tarmoqlari, umumiy sug'urta, hayot sug'urtasi.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda  
kadlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIKILGAN:  
KELISHILGAN:**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor  K.A.Sharipov



2023 yil « \_\_\_\_ »

M.O.

Toshkent moliya instituti


Rektor  T.Z.Teshabaev

2023 yil « \_\_\_\_ »

M.O.

**KELISHILGAN:  
O'zbekiston Respublikasi**

**Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi**

Direktor  Sh.Yakubov



2023 yil « \_\_\_\_ »

M.O.

**O'zbekiston sug'urta bozorining profes-  
sional ishtirokchilari uyushmasi**

Bosh direktor  K.A.Abduraximov

2023 yil « \_\_\_\_ »



M.O.

**"Kafolat sugurta kompaniyasi" AJ**

Boshqaruvi raisi v.b.

 Z.Sh.Norov

2023 yil « \_\_\_\_ »

M.O.



**Toshkent moliya instituti 60410600 – Sug‘urta ishi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining  
malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari  
va kadrlar iste’molchilari o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent shahri

“ ” 2023 y.

Biz, quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori K.A.Sharipov, O‘zbekiston sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi ijrochi direktori K.A.Abduraximov, “Kafolat sug‘urta kompaniyasi” AJ boshqaruvi raisi Z.Sh.Norov va Toshkent moliya instituti rektori T.Z.Teshabayev bilan birgalikda TMIda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60410600 – Sug‘urta ishi ta’lim yo‘nalishi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejaning ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sen Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4412-sen, 2021 yil 24 dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risi”gi PQ-61-sen, 2021 yil 24 dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-60-sen, 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-279-sen qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 iyundagi “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrleri to‘g‘risida”gi F-31-sen Farmoyishi hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori**

**K. Sharipov**

**O‘zbekiston sug‘urta bozorining professional  
ishtirokchilari uyushmasi ijrochi direktori**

**K. Abduraximov**

**“Kafolat sug‘urta kompaniyasi” AJ  
boshqaruvi raisi**

**Z.Sh.Norov**

**Toshkent moliya instituti rektori**

**T. Teshabayev**